

ЕСТЕСТВЕННОЕ ДВИЖЕНИЕ НАСЕЛЕНИЯ И ДИНАМИКА ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ В НАРЫНСКОМ РАЙОНЕ

Жумаханов Шавкатжон Заиржанович

доктор географических наук (DSc), доцент

Наманганский государственный университет (г. Наманган, Узбекистан)

Хасанова Шоира Дилмурод кизи

Магистрант по специальности География

Наманганский государственный университет (г. Наманган, Узбекистан)

Аннотация. В статье научно проанализированы основные процессы трансформации естественного движения населения и демографического развития Норинского района в 2010–2024 годах. В исследовании на основе статистических данных изучена 14-летняя динамика показателей рождаемости, смертности, естественного прироста, брачности, разводимости, а также миграционных процессов. Системно раскрыты темпы роста численности населения, возрастная структура, территориальные различия и социально-экономические факторы, влияющие на демографические процессы. Оценено влияние показателей брачности и разводимости на демографическую стабильность, а также роль и значение миграционного сальдо в формировании трудовых ресурсов. Результаты исследования имеют практическое значение для социально-экономического развития Норинского района, демографического прогнозирования и процессов местного управления.

Ключевые слова: демографические процессы, рождаемость, смертность, брак, развод, естественный прирост, миграция, состав населения, демографический анализ, динамика населения.

NATURAL POPULATION MOVEMENT AND THE DYNAMICS OF DEMOGRAPHIC CHANGES IN THE NORIN DISTRICT

Jumakhonov Shavkatjon Zairjanovich

Doctor of Geographical Sciences (DSc), Associate Professor

Namangan State University (Namangan, Uzbekistan)

Khasanova Shoira Dilmurod qizi

Master's degree in Geography

Namangan State University (Namangan, Uzbekistan)

Abstract. This article provides a scientific analysis of the key transformation processes in the natural population movement and demographic development of the Norin district during the period 2010–2024. The study examines statistical data on birth rates, mortality, natural population growth, marriage and divorce indicators, as well as the 14-year dynamics of migration processes. Population growth rates, age structure, territorial differences, and socio-economic factors influencing demographic trends are systematically presented. The impact of marriage and divorce rates on demographic stability, as well as the role and significance of migration balance in shaping labor resources, is evaluated. The research findings hold practical importance for the socio-economic development of the Norin district, demographic forecasting, and local governance processes.

Keywords: demographic processes, birth rate, mortality, marriage, divorce, natural population growth, migration, population structure, demographic analysis, population dynamics.

NORIN TUMANIDA AHOLINING TABIIY HARA-KATI VA DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR DINAMIKASI

Jumaxanov Shavkatjon Zairjanovich
geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Namangan davlat universiteti (Namangan shahri, O'zbekiston)
Xasanova Shoira Dilmurod qizi
Geografiya mutaxassisligi magistranti
Namangan davlat universiteti (Namangan shahri, O'zbekiston)

Annotatsiya. *Maqolada Norin tumani aholisi tabiiy harakati va demografik rivojlanishining 2010–2024-yillar davomidagi asosiy transformatsiya jarayonlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda tug'ilish, o'lim, tabiiy o'sish, nikoh va ajrim ko'rsatkichlari hamda migratsiya jarayonlarining 14 yillik dinamikasi statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Aholi sonining o'sish sur'atlari, yosh tarkibi, hududiy farqlar va demografik jarayonlarga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar tizimli ravishda bayon qilingan. Nikoh va ajralish ko'rsatkichlarining demografik barqarorlikka ta'siri, shuningdek migratsiya saldosing mehnat resurslari shakllanishidagi o'rni va ahamiyati baholandi. Tadqiqot natijalari Norin tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, demografik prognozlash va mahalliy boshqaruv jarayonlari uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *Demografik jarayonlar, tug'ilish, o'lim, nikoh, ajrim, tabiiy o'sish, migratsiya, aholi tarkibi, demografik tahlil, aholi dinamikasi.*

Kirish. So'nggi yillarda mamlakatimizda demografik jarayonlarni chuqur o'rganish, aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlarini tahlil qilish va ularni hududiy darajada ilmiy asosda boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki aholi sonining o'sish sur'atlari, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari, tabiiy o'sish darajasi bevosita ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, aholining tabiiy harakatini tahlil etish demografik siyosatni yaxshilash va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Norin tumani Namangan viloyatining iqtisodiy-geografik jihatdan muhim hududlaridan biri bo'lib, so'nggi yillarda demografik jarayonlarda sodir bo'layotgan o'zgarishlar hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Aholi sonining barqaror o'sishi, yoshlar ulushining yuqoriligi va migratsiya jarayonlarining faollashuvi tuman demografik tarkibida sezilarli dinamikani yuzaga keltirmoqda. Ushbu omillar hududning mehnat resurslari salohiyatini qayta baholash, xizmat ko'rsatish tarmoqlarini kengaytirish va infratuzilmani optimallashtirish zaruratini oshiradi.

Tumanda demografik o'sish bilan bog'liq ehtiyojlarning ortib borishi ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, uy-joy va ijtimoiy xizmatlar kabi iqtisodiy-ijtimoiy soha yo'nalishlari bo'yicha yangi rejalashtirish yondashuvlarini talab qilmoqda. Shuningdek, aholi zichligidagi hududiy farqlar, ichki migratsiya oqimlarining yo'nalishi va aholining iqtisodiy faollik ko'rsatkichlaridagi tafovutlar tuman ichida hududiy o'sish jarayonlarini nomutanosibligini ko'rsatadi.

Mazkur jarayonlarni ilmiy asosda o'rganish demografik salohiyatdan samarali foydalanish, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqish Norin tumanining iqtisodiy-geografik imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Norin tumanida kechayotgan geodemografik transformatsiya jarayonlari – aholining tabiiy o'sishi, migratsiya harakatidagi o'zgarishlarni ilmiy asosda tahlil qilish hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini aniqlash hisoblanadi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- Norin tumani aholi soni dinamikasi va tabiiy o'sish sur'atlarini tahlil qilish;
- migratsiya jarayonlarining hududiy xususiyatlarini o'rganish;
- Norin tumanining demografik rivojlanishiga oid xulosalar va takliflar ishlab chiqish.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ushbu maqolani yoritib berishda rasmiy demografik va ijtimoiy-iqtisodiy statistik to'plamlar ma'lumotlaridan foydalanilgan. Tahlillarni amalga oshirishda geografik taqqoslash, monografik tahlil, statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, demografik jarayonlarni bozor iqtisodiyoti va hududiy rivojlanish tamoyillari asosida tahlil qilish zarurati yuzaga keldi. Aholi soni, tarkibi, migratsiya oqimlari va mehnat resurslarining joylashuvi masalalari bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Geodemografik jarayonlarning hududiy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, Q.X.Abdurahmonov[1], M.Q.Qoraxonov [8], I.R.Mullajonov [9], A.S.Soliyev [2;6], A.A.Qayumov[4], R.G.Asanov [5], M.Bo'riyeva [3], Z.N.Tojiyeva [7] kabi olimlarning tadqiqotlarida markaziy o'rin olgan. Jumladan, aholi soni, tug'ilishi, o'limi, nikoh va ajralish, tabiiy o'sish dinamikasi jarayonlari hamda joylashuvi kabi demografik jarayonlarni va bu jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar chuqur tahlil etilgan.

Asosiy qism. Norin tumani ma'muriy-hududiy jihatdan Namangan viloyati hududining 2,8 foizi, aholisining esa 5,7 foizi to'g'ri keladi. So'nggi yillarda Norin tumanida aholining tabiiy harakati, ya'ni tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va tabiiy o'sish ko'rsatkichlari demografik rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ushbu jarayonlarni o'rganish hududda aholi sonining dinamikasi, sog'liqni saqlash tizimi samaradorligi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning ta'sirini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tumanda har yili aholi soni o'rtacha 3,2 ming kishiga oshib borayotganini ko'rish mumkin. 2010–2024-yillar davomida Norin tumanining demografik rivojlanishida izchil o'sish tendensiyasi kuzatilib, hududning tabiiy harakati ijobiy dinamikani namoyish etadi.

2010-yilda aholi soni 131,1 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib 178,5 ming nafarga yetgan, bu 47,4 ming kishiga o'sganini ko'rsatadi. Aholi sonining bunday barqaror o'sishi hududda tug'ilishning yuqoriligi, me'yoriy demografik yosh tarkibi, o'rtacha umr ko'rishning asta-sekin uzayishi va o'limning nisbatan past darajada qolishi bilan izohlanadi.

Mutlaq o'sishning yillar bo'yicha tebranishi tumanda demografik jarayonlarning turli mikroomillar ta'sirida shakllanayotganini ko'rsatadi. 2010-yildagi yuqori (9,3 ming) o'sish, asosan, 2000-yillar oxirida shakllangan yuqori

tugʻilish avlodining reproduktiv yoshga kirishi bilan bogʻliq boʻlsa, 2015-yildan keyingi yillarda bu koʻrsatkich nisbatan barqarorlashib, 2–3,3 ming kishi oraligʻida saqlanib kelmoqda. Bu Norin tumanida demografik oʻsishning keskin sakrashsiz, barqaror tipda kechayotganini koʻrsatadi.


1-jadval

2010–2024-yillarda Norin tumani aholisi demografik xususiyatlari boʻyicha asosiy koʻrsatkichlar

T/r	Yillar	Doimiy aholi soni (ming kishi)	Tugʻilish (ming kishi)	Oʻlim (kishi)	Tabiiy oʻsish (ming kishi)	Koʻchib ketganlar (kishi)	Koʻchib kelganlar (kishi)	Migratsiya saldosi (kishi)
1	2010	131 100	2915	688	2227	342	149	-193
2	2011	140 400	2792	667	2125	242	267	25
3	2012	142 500	2914	794	2120	352	303	-49
4	2013	144 600	3331	700	2631	300	190	-110
5	2014	147 200	3545	746	2799	273	277	4
6	2015	149 900	3433	791	2642	364	148	-216
7	2016	152 400	3532	788	2744	406	133	-273
8	2017	154 900	3591	848	2743	435	308	-127
9	2018	157 500	3712	788	2924	465	361	-104
10	2019	160 300	3903	766	3137	572	487	-85
11	2020	163 300	3992	786	3206	835	365	-470
12	2021	166 100	4190	767	3423	602	418	-184
13	2022	169 300	4305	880	3425	455	240	-215
14	2023	172 500	4440	840	3600	498	198	-300
15	2024	175 800	4353	863	3490	499	320	-179

Izoh: Ushbu jadval Oʻzbekiston Respublikasi statistika qoʻmitasi rasmiy sayti: www.stat.uz maʼlumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi[11]

Tabiiy koʻpayish koeffitsiyenti 2010-yildagi 17 % dan 2023-yilda 20,9 % koʻrsatkichini qayd etib, tumanda yuqori tabiiy oʻsish darajasi mavjudligini tasdiqlaydi. Ushbu koʻrsatkich tumanning demografik faol hududlardan biri ekanligini koʻrsatadi. Aholi tarkibida yoshlar ulushining yuqoriligi, tugʻilishning barqaror oʻsishi, oʻlimning pastligi- bularning barchasi tumanning demografik salohiyatining yuqoriligini ifodalaydi. Shuningdek, aholi sonining oʻzgarishi tugʻilish va oʻlim, immigratsiya va emigratsiya jarayonlari natijasida ham namoyon boʻladi. Chunonchi, 2010–2024-yillarda Norin tumanining demografik jarayonlari muntazam oʻsish bilan birga ayrim keskin siljishlarni ham koʻrsatadi (1-rasm)



1-rasm. Norin tumanida aholi takror barpo bo'lish dinamikasi (2010–2024-yillar)[10][11]

Tug'ilish koeffitsiyenti davr boshidagi 22,2 % dan 2024-yilda 24,8 % ga ko'tarilgan bo'lib, tumanda tug'ilishning sezilarli ravishda ortganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2020-yildan keyingi yillarda tug'ilish ko'rsatkichining tez o'sishi kuzatiladi. Bu holat bir nechta omillar bilan izohlanadi:


- reproduktiv yoshdagi ayollar ulushining oshishi;
- ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning kuchayishi;
- yosh oilalarga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlovlar;
- oilaviy qadriyatlarning nisbatan konservativ saqlanishi.

O'lim koeffitsiyenti 2010–2024-yillar oralig'ida 5,2–4,9% diapazonida tebrangan bo'lib, umumiy demografik fon uchun past ko'rsatkich sanaladi. Ayrim yillarda o'limning biroz oshishi (masalan, 2022-yil 5,2%) sog'liqni saqlash tizimidagi mavsumiy kasalliklar, global pandemiya ta'siri yoki iqlim sharoitlaridagi o'zgarishlar bilan izohlashimiz mumkin. Migratsion jarayonlarda esa immigratsiya ko'rsatkichlari davr mobaynida past bo'lib, 1,0–2,5% oralig'ida shakllangan. Ularning o'zgarishi keskin emas, lekin 2020-yilda kuzatilgan pasayish global pandemiya sharoitining migratsiya jarayonlariga bevosita ta'siri bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Keyingi yillarda bu ko'rsatkich asta-sekin tiklangan bo'lsa-da, daraja hanuz past bo'lib qolmoqda.

Bunga zid ravishda, emigratsiya ko'rsatkichlari ancha baland va faolroq o'zgaruvchanlikka ega. 2010–2014-yillarda emigratsiya barqaror bo'lgan bo'lsa, 2015-yildan boshlab o'sish kuzatiladi. 2020-yilda emigratsiyaning 5,1 % gacha keskin ko'tarilishi tashqi, iqtisodiy va ijtimoiy omillarning kuchayganidan dalolat beradi. Bu davr pandemiya bilan mos kelgani emigratsiya oqimining vaqtinchalik, ammo sezilarli kuchayishiga sabab bo'lgan. 2021-yildan boshlab ko'rsatkich yana me'yoriy darajaga qaytgan. Umuman olganda, 2010–2024-yillar davomida Norin tumanida kuzatilgan demografik jarayonlar – yuqori tug'ilish, past o'lim va ijobiy tabiiy o'sish kabi asosiy ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Tumanda migratsion jarayonlarning ulushi yuqori bo'lishiga sabab- hududda aholi bandligi muammosi mavjudligidir.

Nikoh va ajrimlar demografik jarayonlarning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniy qadriyatlari va turmush tarzi bilan chambarchas bog'liqdir. Nikohlar sonining o'sishi jamiyatda oilaviy institutning barqarorligi, yoshlar orasida turmush qurish tendensiyasining yuqoriligi va tabiiy o'sish jarayonining faolligi bilan izohlanadi. Aksincha, ajrimlar sonining ortishi ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar, iqtisodiy bosimlar, migratsiya

oqimlari, bog‘liq bo‘lishi mumkin. Turmush sharoitlaridagi farqlar va oilaviy qadriyatlardagi transformatsiyalar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.



2-rasm. Norin tumani aholisining nikoh va ajralish ko‘rsatkichlari dinamikasi (2010-2024-yillar) [10]

2-rasmdagi ma’lumotlar 2010 va 2024-yillarda qayd etilgan nikohlar hamda nikohdan ajralishlar koeffitsiyentlari qiyosiy tahlil qilingan. Ma’lumotlarga ko‘ra, tuzilgan nikohlar soni 2010-yil 10,4 % yoki 1361 kishidan 2024-yilda 7,5%- 1320 kishiga kamaygan. Bu ko‘rsatkich 3,0 % pasayishni tashkil etadi. Mazkur pasayish ijtimoiy-demografik jarayonlarning o‘zgarishi, oilaviy institut barqarorligidagi o‘zgarishlar, iqtisodiy omillar va turmush tarzi bilan bog‘liqdir.

Shu bilan birga, nikohdan ajralishlar soni keskin o‘shish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. 2010-yilda 0,8 % (102 kishi) bo‘lgan ajralishlar soni 2024-yilga kelib 1,7 % (294 kishiga) yetgan, ya’ni deyarli uch barobarga oshgan. Bu holat oilaviy barqarorlikning pasayishi, oilaviy nizolar, psixologik bosimlar, mehnat migratsiyasi, iqtisodiy qiyinchiliklar yoki axborot-kommunikatsiya vositalarining oilaviy munosabatlarga ta’sirining kuchayishi kabi omillar bilan izohlash mumkin [1; 113-bet].

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, 2010–2024-yillar davomida nikohlar sonida nisbatan barqarorlik kuzatilgan bo‘lsa-da, ajralishlar sonining keskin ortishi demografik vaziyatga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Aholi tarkibida oilaviy muvozanatning buzilishi, tug‘ilish ko‘rsatkichlariga ham bilvosita ta’sir qilishi ehtimoli mavjud. Shundan kelib chiqib, oilani mustahkamlash, psixologik maslahat xizmatlarini kengaytirish, yosh oilalarga ijtimoiy ko‘mak va ma’naviy-ma’rifiy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini kuchaytirish zarur.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda quyidagilarni **xulosa** sifatida keltirish mumkin:

1. 2010–2024-yillar davomida Norin tumani aholisi tabiiy harakati barqaror va ijobiy dinamikaga ega bo‘lib, tug‘ilishning muntazam ortib borishi, o‘limning past darajada saqlanishi va tabiiy o‘lishning yuqoriligi hududning demografik salohiyatini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, nikohdan ajralishlar sonining oshishi oilaviy barqarorlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin, bu esa tug‘ilish dinamikasiga bilvosita ta‘sir etishi ehtimolini ko‘rsatadi.

2. Migratsiya jarayonlari tuman ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, immigratsiya past, emigratsiya esa yuqori darajada saqlanib kelmoqda. 2020-yilda kuzatilgan emigratsiyaning oshishi pandemiya va tashqi-iqtisodiy omillarning bevosita ta‘sirini aks ettiradi. Uzoq muddatli istiqbolda bu mehnat resurslarining qisqarish xavfini yuzaga keltiradi.

3. Tuman demografik rivojlanishini optimallashtirish uchun yosh oilalarni moliyaviy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash va nikoh–ajralish jarayonlarini monitoring qilish zarur. Shu bilan birga, psixologik maslahat xizmatlarini kengaytirish oilaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

4. Migratsiyani boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, mahalliy ish o‘rinlarini yaratish va mehnat bozorini rag‘batlantirish tumanning iqtisodiy-ijtimoiy barqarorligini ta‘minlashga yordam beradi. Emigratsiya oqimlarini kamaytirish uchun malakali kadrlarni va yoshlarni hududda saqlash strategiyasi ishlab chiqilishi zarur.

5. Aholi soni va tabiiy harakat ko‘rsatkichlarini doimiy monitoring qilish, hududiy demografik farqlarni hisobga olgan holda ijtimoiy xizmatlar va infratuzilmani optimallashtirish, shuningdek, mahalliy demografik siyosatni ilmiy asosda shakllantirish Norin tumanining uzoq muddatli demografik xavfsizligini va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov Q.X. Demografiya: [O‘quv qo‘llanma]. – Toshkent: Noshir, 2011. – 296 b.
2. Gadoyev K., Berdiyeva S. O‘zbek geografiya fani fidoyilari. – Toshkent, 2015.
3. Bo‘riyeva M. O‘zbekistonda oila demografiyasi. – Toshkent: Universitet, 1997. – 157 b.
4. Qayumov, A.A., Yakubov O‘.Sh., Abdullayev A.G. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. – 160 b.
5. Asanov R.G. Aholi geografiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990. – 248 b.
6. Soliyev A.S., Jumaxanov Sh.Z., Toshpo‘latov A.M. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya [Darslik]. – Namangan: “Mashrab”, 2024. – 408 b.
7. Тожиева З.Н. Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнлар ва уларнинг ҳудудий хусусиятлари // г.ф.д. (ДСс) илмий дар. олиш у-н ёз. дисс. автореферати. – Тошкент, 2017. – 76 б.
8. Караханов М.К. Подготовка и использование квалифицированных кадров рабочих и специалистов в Узбекистане в послевоенный период: автореферат дис. ... канд. экон. наук. – Ташкент, 1958. – 17 с. URL: <https://search.rsl.ru/ru/record/01006293471>

9. Мулладзянов И.Р., Ата-Мирзаев О.Б., Буриева М.Р. Рождаемость в Узбекистане (рецензия) // Общественные науки в Узбекистане. – 1992. – № 3. – С. 63.
10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi Namangan viloyati hududiy statistika boshqarmasi. URL: <https://namstat.uz>
11. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. URL: <https://stat.uz>